



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING KLASSTERLI PEDAGOGIK HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA YOSHLAR YETAKCHISINING O‘RNI VA VAZIFALARI

Salohiddinova G‘azalxon Bekmirzaevna

Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi

Alfraganus universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oilada o‘smir yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga jalb qilishda Mahalla institutining yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, o‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish jarayoni, yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilishi va yoshlarning o‘zini samarali anglashi uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy faollik, iste’dodli yoshlar, yoshlar bilan ishlash mexanizmi, mahalla faoliyati, yoshlarga oid davlat siyosati dasturi, Uchinchi Renessans.

Abstract:

This article discusses the issues of meaningful organization of youth-led time in the family, the development of new management mechanisms for working with youth, the creation of conditions for the socio-economic development of adolescents, social protection of youth, etc. in helping adolescents participate in the socio-political life of the country.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Keywords: socio-political activism, talented youth, mechanisms for working with youth, work with organizations, state youth program, Third Renaissance.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы привлечения подростков и молодёжи к социально-политической жизни страны через институт махалли, организацию содержательного досуга для молодёжи, внедрение новых управленческих механизмов работы молодёжью развитие социальной и политической активности подростков рамках государственной молодёжной политики, а также создание условий и возможностей для эффективного самопонимания молодёжи.

Ключевые слова: социально-политическая активность талантливая молодёжь, механизм работы с молодёжью, деятельность махалли государственная молодёжная политика, Третий ренессанс.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli Farmonida yoshlar yetakchisining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va uning vazifalari alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda mahallalardagi yoshlar yetakchilarining alohida o‘rni bor.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda asosiy poydevor yoshlar va ularning intellektual salohiyati hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz aholisining katta qismi zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlardan iborat ekanini inobatga olgan holda, mazkur qatlamning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalaridagi manfaatini himoya qilish hamda kuzatilayotgan dolzarb masalalarning nazariy va amaliy jihatdan yechimini topish kun tartibidagi muhim vazifadir.

Yosh avlod kelajagi esa hamisha O'zbekiston siyosatining markazida bo'lgan. Bugun ham yurtimizda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning kamoloti va tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi shart-sharoit yaratish uchun barcha sohada keng ko'lamli islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yoshlar bilan muloqot faqat idoralarda yoki maktablarda bo'lmaydi. Muloqotni uzviy ravishda yo'lga qo'yish uchun, birinchi navbatda, yoshlar ichiga quchoq ochib kirib borish talab etiladi. Aynan mana shunday sharoitda yoshlar yetakchisiga zarurat seziladi.

Yoshlar yetakchisi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda turli muassasalar hamda yoshlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning turli jarayonlarga moslashuviga ko'maklashadi. Yigit-qizlarga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatgan holda Vatanga muhabbat hissini oshiradi. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish bo'yicha muntazam tahlil qilib boradi va ish sifatini oshiradi. Shuningdek, ularning ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo'lib turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim muassasalarida har yili Oila–Maktab–Yoshlar tashkiloti uchtaligida hamkorlik dasturlari ishlab chiqish; Har bir ishtirokchi uchun aniq vazifalar va natijalar indikatorini belgillash; Ustoz–shogird an'anasi asosida tajriba almashish va yoshlarning ijtimoiy loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash va raqamli platformada hamkorlik natijalarini kuzatish



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

va baholash; loyihalarda bolalar tashabbusini asosiy element sifatida qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

O'smirlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda oila, maktab, mahalla va yoshlar tashkilotlari o'rtasida pedagogik hamkorlikni integratsiyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Klasterli model va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali hamkorlik tizimi samarali tashkil etiladi. Bu jarayon nafaqat o'smirlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishga, balki jamiyatda huquqiy savodxonlik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yoshlar yetakchisi, o'z navbatida, davlat bilan tengqurlari o'rtasidagi vositachiga aylanadi. U yoshlarning manfaati va muammolarini tahlil qiladi. Ularning mavjud qobiliyatidan kelib chiqib, to'g'ri maqsad sari yo'naltiradi. Shuningdek, salohiyatini rivojlantirishning individual yo'nalishini izlab topadi. Zero, yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yurituvchi kadrlar yoshlarning ta'limga nisbatan qiziqishini aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqadi. Ularning tashabbusini amalga oshirishga yordam beradi. Yoshlarning o'qishi va ta'limdagi yutuqlarini loyihalashtirish, tahlil qilish va taqdim etishga ko'maklashadi. Yoshlar bilan ularning yutuq va qiyinchiliklarini, turli joylarda va turli tadbirlarda amalga oshiriladigan faoliyatning qay darajada samaradorligini, sinov harakatlarida samarali ishlashga ta'sirini tahlil qiluvchi tadbirlarni o'tkazadi.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar mazmun jihatidan bevosita ularga naqadar daxldor ekanini anglaymiz. Zero, har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi, albatta, davlatning yetakchi kuchi hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Oila, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Mazkur mexanizm uzluksiz, tizimli va maqsadli hamkorlikni ta'minlash orqali o'smirlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari va treyninglar tashkil etish zarur. Bu esa oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, farzandlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy interaktiv pedagogik texnologiyalarni, jumladan, debat, keys-stadi, rolli o'yinlar va loyiha asosida o'qitish usullarini keng joriy etish lozim. Bu usullar o'smirlarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Yoshlarda raqamli va media savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Axborot muhitida to'g'ri yo'nalishni tanlash, feyk axborotlarni ajratish va mas'uliyatli axborot iste'moli ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari va xulosalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mahallalarda «Yoshlar yetakchisi»ning ota-onalar va ta'lim muassasalari bilan hamkorligini tizimli tashkil etish maqsadida uch tomonlama pedagogik hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish;
2. «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portali» elektron platformalari imkoniyatlarini kengaytirish — unga o'smirning ijtimoiy-siyosiy faollik portfoliosini yuritish, to'garak va loyihalarda ishtirokini qayd etish, pedagog va ota-onalar tomonidan o'smirlarga maqsadli tavsiyalar berish funksiyalarini qo'shish;
3. 6–9-sinf o'quvchilari uchun «Fuqarolik va ijtimoiy faollik» kursini yoki modulini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga qo'shimcha darslar shaklida tatbiq etish;



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

4. O'smirlar ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish yo'llari, farzandlar bilan konstruktiv muloqot texnikalari va «maktab-oila-mahalla» hamkorligida ishtirok etish tartibini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2013 yil 12 dekabrda PQ-2085-son qarori. www.lex.uz
2. G.B.Salohiddinova. The Role Of Mahalla Civil Society Institutes In Increasing The Youth's Social Activeness In The Family. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(11), 2020 512-515 betlar.
3. G.B.Salohiddinova. SOCIAL PEDAGOG Dostijeniya nauki i obrazovaniya № 19 (41), 2018 NAUCHNO-METODICHESKIY JURNAL [HTTPS://SCIENTIFICTEXT.RU](https://scientifictext.ru) UE'S RESPONSIBILITIES IN COOPERATION WITH A FAMILY TO INCREASE CHILD SOCIABILITY.
4. Usmanova Azizakhon Abdullazhonovna O'ZBEKISTON YoShLARINI IJTIMOIIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHNING SIYO SIY-PSIXOLOGIK ASOSLARIo Monografiya 2020.